

**XALÍQ DEPUTATLARI
BOZATAW RAYONLÍQ
KEÑESINIÑ SHESHIMI**



**XALQ DEPUTATLARI
BO‘ZATOV TUMANI
KENGASHINING QARORI**

2025-jul 30-dekabr

VII-17-151-13-
216-K/25

Bozataw rayoni

**2026 yilda Bo‘zatov tumanini kompleks
ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi to‘g‘risida**

Tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, **yuqori va barqaror iqtisodiy o‘shishga** erishish, **aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati** uchun qulay shart-sharoit yaratish, **yashil tamoyil va yondashuvlarni** keng joriy etish, **iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi drayver loyihalarni** amalga oshirish orqali aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 20 dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoniga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 20 dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar, **Bo‘zatov tumanini 2026 yilda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi** (keyingi o‘rinlarda – Dastur)ning asosiy yo‘nalishlari etib belgilansin.

a) tuman markazi **qiyofasini zamonaviy ko‘rinishga keltirish**, shu jumladan **markazlashgan ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi bosqichma-bosqich oshirish, obodonlashtirish**, hamda **ko‘p kvartirali uy-joylar** qurish;

b) xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida **yangidan xizmat ko‘rsatish loyihalarini samarali amalga oshirish, 24/7 rejimida tun-u kun ishlaydigan savdo va xizmat ko‘rsatish** obyektlarini tashkil etish hamda **mahalliy va xorijiy turistlar** oqimini oshirish;

v) qishloq xo‘jaligida **ijaraga berilgan yerlarda namunali loyihalarni** amalga oshirish, **tomorqalardan samarali foydalanish, yer maydonlarining suv ta‘minotini yaxshilash, foydalanishdan chiqqan yer maydonlarini qayta foydalanishga kiritish dala chetlaridan samarali foydalanish;**

g) sanoatda **tikuvchilik sohasidagi** korxonalar quvvatini oshirish, **kichik ishlab chiqarish loyihalarini** samarali amalga oshirish, **kichik sanoat zona** imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

3. Dasturga asosan:

sanoatni rivojlantirish kichik dasturi **1 va 1.1-ilovalarga;**

qishloq xo‘jaligini rivojlantirish kichik dasturi **2 va 2.1-ilovalarga;**

qurilishni rivojlantirish kichik dasturi **3, 3.1 va 3.2-ilovalarga;**

xizmatlarni rivojlantirish kichik dasturi **4 va 4.1-ilovalarga;**

hududiy eksport va investitsiyalar hajmini oshirish kichik dasturi **5 va 5.1-ilovalarga;**

tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kichik dasturi **6, 6.1 va 6.2-ilovalarga;**

aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish kichik dasturi **7 va 7.1-ilovalarga;**

yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish kichik dasturi **8 va 8.1-ilovalarga;**

ijtimoiy sohani rivojlantirish kichik dasturi **9 va 9.1-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilarga shaxsiy ma‘suuliyat yukalatilsin:

Bo‘zatov tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari — Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i – sanoatni rivojlantirish, xizmatlarni rivojlantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda aholi bandligini va daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish kichik dasturlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

Bo‘zatov tumani hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – qurilishni rivojlantirish hamda yashil tamoyil va yondashuvlarni joriy etish kichik dasturlarini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

Bo‘zatov tumani hokimining o‘rinbosari — tuman Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i – eksport va investitsiyalar hajmini oshirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

Bo‘zatov tumani hokimining hokimning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i – qishloq xo‘jaligini rivojlantirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan;

Bo‘zatov tumani hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari hamda hokimning o‘rinbosari — Oila va xotin- qizlar bo‘limi boshlig‘i – ijtimoiy sohani rivojlantirish kichik dasturini sifatli amalga oshirish yuzasidan.

5. Dastur ijrosini har chorak yakuni bo'yicha keyingi oying 25-sanasiga qadar:

tuman hokimi o'rinbosarlari tomonidan ijrosini tashkil etish;

tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari — Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i tomonidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borish choralarini ko'rsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari, sektor rahbarlari Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borsin hamda har chorakda Dastur ijrosi bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashi yig'ilishlarida hisoboti eshitib borilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



**UBBINIYAZOV
BATIRBEK
ONGARBAEVICH**

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
1-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zatov tumanida sanoatni rivojlantirish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
1.	Tumandagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va yangi quvvatlarni ishga solish hisobiga barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash.	<p>1. Sanoat ko‘rsatkichlari natijalarini taxlil qilish hamda «pastdan yuqoriga» tamoiyili asosida muammolarni hal etish choralari ko‘rish.</p> <p>2. Korxonalarni ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xisobotlarda aks ettish choralari ko‘rish.</p> <p>3. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini 74,7 mlrd.so‘mga o‘shish sur‘atini 105,5 foizga bajarilishini ta‘minlash.</p>	Mablag‘ talab etmaydi	2026-yil davomida Har oyning 10 sanasiga qadar 2026-yil yakuni bilan	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Berdimuratov), Statistika bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi

2.	Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish maqsadida "Qusxanatov" mahallasi hududidagi 41,3 gektar maydondagi 1 977,7 ming metr kub qurilish qumlari zaxirasiga ega uchastkani auksion savdolariga chiqarish.	<p>1. Noruda foydali qazilmalarini o'z ichiga olgan yer qari uchastkalari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Auksion savdolariga chiqarish uchun tegishli korxonalar va tashkilotlar bilan kelishish.</p> <p>3. Yer qari uchastkasni auksion savdolariga chiqarish.</p>	Mablag' talab etmaydi	2026-yil davomida iyul 2026-yil sentyabr	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari (S.Djumanazarov), Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi
3.	Mavjud sanoat korxonalarini quvvatlarini oshirish va sanoat hajmlarini statistik hisobotlarda aks ettirish.	<p>1. Ro'yxat asosida korxonalarini joyiga chiqqan holda o'rganib muammolarni aniqlash.</p> <p>2. Muammolarni hal qilish bo'yicha tezkor choralarini ko'rish orqali qo'shimcha sanoat hajmlarini yaratish.</p> <p>3. Qo'shimcha sanoat hajmlarini statistik hisobotlarda aks ettirish.</p>	Mablag' talab etmaydi	2026-yil fevral xar oyda hisobot davrida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (R.Berdimuratov), Statistika bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi

4.	Ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan korxonalarning manzilli ro'yxatini shakllantirib, kamaytirish sabablarini doimiy o'rganish.	<ol style="list-style-type: none">1. Ishlab chiqarish hajmlarini kamaytirish sabablarini o'rganib ularni bartaraf etish yuzasidan zaruriy choralar ko'rish.2. Mazkur korxonalar faoliyatini monitoring qilib borish.3. Korxonalar faoliyati yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan sanoat shtabiga axborot berib borish.	Mablag' talab etmaydi	2026-yil fevral har chorak yakunida	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (R.Berdimuratov), Statistika bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi
----	--	---	-----------------------	--	---

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
2-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zatov tumanida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/ r	Indikatorlar nomi	O‘lch ov birligi	2026- yil (reja)	shundan:				Mas’ullar	
				I chora k	II chora k	III chora k	IV chorak		
1.	Sanoat mahsulotlari o‘shish sur‘ati	foiz	105,5	104,8	105,0	105,3	105,5	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Tuman (shahar) hokimning birinchi o‘rinbosari
2.	Mahallalarda mikrosanoat markazlarini tashkil etish	ta	-	-	-	-	-	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Tuman (shahar) hokimning birinchi o‘rinbosari
3.	“Drayver” loyihalarni amalga oshirish	ta	-	-	-	-	-	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Tuman (shahar) hokimning birinchi o‘rinbosari

4.	Barcha toifadagi sanoat zonalaridagi bo'sh yer maydonlarga istiqbolli loyihalarni joylashtirish	gektar	-	-	-	-	-	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi	Tuman (shahar) hokimning birinchi o'rinbosari
5.	Foydali qazilma kon va maydonlarni auksion savdolariga chiqarish	gektar	41,3	-	-	41,3	-	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi	Tuman (shahar) hokimning birinchi o'rinbosari
6.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish	ming tonna	-	-	-	-	-	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi	Tuman (shahar) hokimning birinchi o'rinbosari

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
3-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zatov tumanida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas‘ullar
1.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini 437,5 mlrd so‘m, 104,8 foizga o‘shirish sur‘atini ta‘minlash.	1. 2026-yil hosili uchun asosiy maydonlarga 50 gektarga kartoshka, 150 gektar sabzavot, 200 gektar poliz, 200 gektarga moyli ekinlar, 1000 gektarga dukkakli don, 4030 gektarga ozuqa ekinlarini to‘liq ekilishi ta‘minlash. 2. Tumanda g‘alladan bo‘shagan 420 gektar shundan, 20 gektar sabzavot, 25 gektar	Hisob kitoblarga ko‘ra, Tashabbuskorlar, tijorat banklari kreditlari va o‘z mablag‘lari	2026-yil 1-mart 2026-yil 1-iyun	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Juzbayev), Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, tuman Suv yetkazib berish xizmati DM

	<p>poliz, 30 gektarga moyli ekinlar, 50 gektarga dukkakli don, 30 gektar tariq, 265 gektarga ozuqa ekinlari to'liq ekilishi ta'minlash.</p> <p>3. Suv tejamkor texnologiyalar joriy qilish maydonini 250 gektarga shu jumladan yomg'irlatib sug'orish tizimini 140 gektarga yetkaziladi.</p> <p>4. Hududiy dasturlarga asosan 2026-yilda aholi tomorqalariga 433 gektar erta bahorgi, 34 gektar takroriy, 2 gektar avgust-sentyabr piyozi va sarimsoqpiyoz hamda 4 gektar to'qsonbosti usulida ekinlarni ekish.</p> <p>5. Aholi tomorqalarida ekilgan erta bahorgi ekin maydonlardan 6,9 ming tonna, takroriy maydonlardan 0,41 ming tonna, avgust-sentyabr piyozi va sarimsoqpiyoz maydonlaridan 0,04 ming tonna</p>		<p>2026-yil 1-avgust</p> <p>2026-yil 1-oktyabr</p>	
--	---	--	--	--

		hamda to'qsonbosti usulida ekin maydonlaridan 0,052 ming tonna hosil olish ta'minlash.			
2.	“Zarbdor” tajribasi asosida Qusxanatov OFY hududidagi o'zlashtirilmagan yerlarga lotok orqali sug'orish suvi olib borish	<p>1. Tanlangan maydonda suv ta'minotini yaxshilash bo'yicha loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. Loyiha smeta hujjatlariga asosan qurilish ishlarini olib borish.</p> <p>3. Loyihani belgilangan muddatlarda ishga tushirish .</p>	4 000 mln.so'm Respublika byudjeti hisobidan	2026-yil 1-dekabr	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (R.Berdimuratov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi
3.	25 gektar maydonda yangi intentsiv bog'lar barpo qilish.	<p>1. Barpo etiladigan bog' va tokzor maydonlarini toifasi va foydalanish turini aniqlash.</p> <p>2. Toifasi va foydalanish turi o'zgartirilishi talib etiladigan yer maydonlarini belgilangan tartibda toifasi va turini o'zgartirish.</p> <p>3. Yer maydonlarini talabgorlar va tashabbuskorlarga belgilangan tartibda ajratish.</p> <p>4. Ko'chat yetkazib</p>	Hisob kitoblarga ko'ra, Tashabbuskorlar , tijorat banklari kreditlari va o'z mablag'lari	2026-yil 1-fevral Belgilangan muddatlard a 2026-yil 1-iyun 2026-yil	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (B.Juzbayev), Qishloq xo'jaligi bo'limi, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi filiali

		<p>beruvchilar bilan shartnoma tuzish.</p> <p>Bunda, ko‘chat sotib olishda davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalanish.</p> <p>5. Yer tayyorlash va ko‘chat ekish ishlarini amalga oshirish.</p> <p>Bunda, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi xizmatlaridan foydalanish.</p>		<p>1-iyul</p> <p>2026-yil 1-dekabr</p>	
4.	<p>Aholiga ijaraga berilgan 55 gektar qishloq xo‘jaligi ekin yerlarida “bir kontur – bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirish.</p>	<p>1. Namunaviy loyihalar tashkil etish uchun aholi yashash punktlariga yaqinda joylashgan, suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan, 10 gektardan kam bo‘lmagan bittadan konturlarni tanlash.</p> <p>2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, ekspotchi eksportga yuborish va ichki bozorlarga yetkazib berish faoliyati bilan shug‘ullanadigan “yetakchi” tadbirkorlarni aniqlash va har bir konturga</p>	<p>Hisob kitoblarga ko‘ra, Tashabbuskorlar , tijorat banklari kreditlari va o‘z mablag‘lari</p>	<p>2026-yil 1-fevral</p> <p>2026-yil 15-fevral</p>	<p>Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Juzbayev), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Suv xo‘jaligi bo‘limi, tijorat banklari</p>

		<p>biriktirish.</p> <p>Bunda, tadbirkor va aholi o'rtasida uchrashuv va targ'ibot tashkil etish.</p> <p>3. Yer ijarachilarini dehqon xo'jaligi sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish va qishloq xo'jaligi kooperativlariga birlashtirish.</p> <p>4. Urug'lik va ko'chatlarni sotib olish va ularni to'liq ekilishini tashkil qilish maqsadida "yetakchi" tadbirkorga yoki ijarachiga moliyaviy ko'mak berish.</p> <p>Zarur hollarda tanlangan konturlarda suv ta'minotini yaxshilash.</p>		<p>Doimiy</p> <p>Doimiy</p>	
5.	<p>Qishloq xo'jaligida oborotdan chiqqan 1500 gektar yerlarni qayta foydalanishga kiritish hamda 1500 gektar yangi yerlarni o'zlashtirish.</p>	<p>1. Tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan o'zlashtiriladigan va qayta foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarining manzilli ro'yxati shakllantirish.</p> <p>2. Suv bilan ta'minlash</p>	<p>Hisob kitoblarga ko'ra,</p>	<p>2026-yil 1-fevral</p> <p>2026-yil 1-mart</p>	<p>Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (B.Juzbayev), Qishloq xo'jaligi bo'limi</p>

	<p>imkoniyati mavjudligi bo'yicha Suv xo'jaligi vazirligining xulosasi;</p> <p>yer osti suvlari zaxirasining mavjudligi bo'yicha Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining xulosasi;</p> <p>yer maydonlarini o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar va taxminiy hisob-kitoblarga hamda moliyaviy manbaalariga aniqlik kiritish.</p> <p>4. Yer maydonlarini foydalanishga kiritish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali pudrat tashkilotlari (Pudratchi) aniqlash.</p> <p>5. Tuman komissiyasi tomonidan yer maydonlarini foydalanishga kiritilganligi bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar</p>		<p>2026-yil 1-aprel</p> <p>Doimiy</p>	
--	---	--	---	--

		asosida qabul qilish.			
6.	Suv tejoychi texnologiyalar tomchilatib sug'orish va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini joriy qilish.	<p>1. Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilishga ko'maklashuvchi servis xizmat ko'rsatish guruhlarini faoliyatini yo'lga qo'yish.</p> <p>2. Kredit mablag'lari hisobidan suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish loyihalarini amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskorlariga "suv.kredit.uz" elektron tizimi orqali ariza topshirishda ko'maklashish.</p> <p>3. Suv tejoychi texnologiyalar joriy qilinadigan maydonlarda qurilish ishlarini boshlash bo'yicha doimiy monitoring olib borish.</p> <p>4. Joriy qilingan suvni tejoydigan sug'orish texnologiyalari uchun subsidiya olish maqsadida "Agro-subsidiya" AT orqali ariza topshirishga ko'maklashish.</p>	Hisob kitoblarga ko'ra, Tashabbuskorlar, tijorat banklari kreditlari va o'z mablag'lari	<p>2026-yil yanvar</p> <p>2026-yil yanvar-aprel</p> <p>Doimiy</p> <p>2026-yil 1-dekabr gacha</p>	Tuman hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari (B.Juzbayev), "Suv yetkazib berish xizmati" DM, tijorat banklari

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
4-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zatov tumanida qishloq ho‘jaligini bo‘yicha
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/ r	Indikatorlar nomi	O‘lch ov birligi	2026- yil (reja)	shundan:				Mas’ullar	
				I chor ak	II chor ak	III chora k	IV chorak		
1.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘shish sur’ati	foiz	104,8	104,6	103,0	103,1	104,8	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	Tuman (shahar) hokimning qishloq ho‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosari
2.	“Drayver” loyihani amalga oshirish	ta	1,0	0,0	0,0	0,0	1,0	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Tuman (shahar) hokimning qishloq ho‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosari
3.	Yangi intentsiv bog‘ va tokzorlar barpo qilish (sh.j. eski bog‘lar o‘rnida)	gektar	50,0	20,0	5,0	10,0	15,0	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	Tuman (shahar) hokimning qishloq ho‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosari

4.	Organik mahsulotlar yetishtirish	gektar	25,0	5,0	10,0	0,0	10,0	Qishloq xo'jaligi bo'limi	Tuman (shahar) hokimning qishloq ho'jaligi bo'yicha o'rinbosari
5.	Aholiga ijaraga berilgan yer maydonlarda "bir kontur – bir mahsulot" tamoyili asosida namunali loyihalarni amalga oshirish	gektar	55,0	0,0	55,0	0,0	0,0	Kambag'alli kni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi	Tuman (shahar) hokimning qishloq ho'jaligi bo'yicha o'rinbosari
6.	Yer maydonlarni o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish	gektar	1500,0	525,0	480,0	345,0	150,0	Qishloq xo'jaligi bo'limi	Tuman (shahar) hokimning qishloq ho'jaligi bo'yicha o'rinbosari
7.	Suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish	ming gektar	0,250	0,10	0,10	0,05	0,250	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM	Tuman (shahar) hokimning qishloq ho'jaligi bo'yicha o'rinbosari

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
5-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zator tumanida qurilish sohasini rivojlantirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/ r	Indikatorlar nomi	O‘lcho v birligi	2026- yil (reja)	shundan:				Mas’ullar	
				I chora k	II chora k	III chora k	IV chorak		
1.	Qurilish ishlari o‘shish sur’ati	foiz	106,9	102,9	104,4	104,5	106,9	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	Bo‘zator tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinbosari
2.	Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi " Qishloq infratuzilmasi va "O‘rta shaharlar" loyihalari doirasida mablag‘larni o‘zlashtirish	mln.do ll						Tuman hokimligi	Bo‘zator tuman hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinbosari
3.	Aholini uy-joylar bilan ta’minlash dasturi doirasida	xonado n soni	1	0	0	0	1	Qurilish va uy-joy	Bo‘zator tuman hokimining qurilish

	turar joylar qurilishini tashkil etish							kommunal xo'jaligi bo'limi	bo'yicha o'rinbosari
4.	Ichki yo'llarni qurish va ta'mirlash	km	17	0	2	7	8	Avtomobil yo'llari bo'limi	Bo'zotov tuman hokimining qurilish bo'yicha o'rinbosari
5.	Aholi punktlarida piyodalar va velosiped yo'laklarini barpo etish	km	1	0	0	0,5	0,5	Tuman hokimligi	Bo'zotov tuman hokimining qurilish bo'yicha o'rinbosari
6.	Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash	ta	1	0	0	1	0	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi	Bo'zotov tuman hokimining qurilish bo'yicha o'rinbosari
7.	Markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	85	0	83	84	85	"Suv ta'minoti" MCHJ	Bo'zotov tuman hokimining qurilish bo'yicha o'rinbosari
8.	Yuqori va past kuchlanishli elektr tarmoqlarini tortish	km	3,5	0	1,4	2,1	0	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ	Bo'zotov tuman hokimining qurilish bo'yicha o'rinbosari
9.	Transformator punktlarini o'rnatish	ta	0	0	0	1	0	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ	Bo'zotov tuman hokimining qurilish bo'yicha o'rinbosari
10.	Ko'prik inshootlarini tiklash	ta	0	0	0	0	0	Tuman hokimligi	Bo'zotov tuman hokimining qurilish

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
6-qosımsha

**2026-yil Bo‘zatov tumanida yo‘l-transport infratuzilmasi va muhandislik-kommunikatsiyalarini qurish, rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash
CHORA-TADBIRLARI**

№	Muassasa nomi va amalga oshiriladigan tadbirlar	O‘lchov birligi	Quvvati	Amalga oshirish muddati	Talab etiladigan mablag‘ * (mln.so‘m)	Moliyalashtirish manbasi	Mas‘ul ijrochilar
	Tuman bo‘yicha jami	x	x	x	10 700,0	x	x
	<i>shu jumladan:</i>						
I.	Irrigatsiya tarmoqlari	kanal, km	2,3	2026 y	5 000,0	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligini
	tarmoq, km						
	lotok, km						
	nasos, dona	1					

		sugʻorish tik quduq, dona				va iqlim oʻzgarishi vazirligining grant mablagʻlari hisobidan	
II.	Yoʻl infratuzilmasini yaxshilash	km	14,0		5 700,0		
		obyekt					
1	95V121 Boʻzatov tumani markazi – Porlitog ovuli	km	0,5	2026 y	500,0	Respublika byudjetidan	Qoraqalpogʻiston Respublikasi Avtomobil yullari bosh boshkarmasi
2	95V038 D236 avtomobil yoʻli (32 km.dan) – Kazanketken ovuli – Kukchiyel axoli punkti"	km	0,5	2026 y	500,0	Respublika byudjetidan	Qoraqalpogʻiston Respublikasi Avtomobil yullari bosh boshkarmasi
3	95V123 Kazonketken ovuli – KS-1 kollektori – Shaxaman ovuli	km	0,3	2026 y	300,0	Respublika byudjetidan	Korakalpogiston Respublikasi Avtomobil yullari bosh boshkarmasi
4	Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash borasida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.10.2024-yil 665-sonli qaroriga asosan 14 km	km	14,0	2027 y	4 400,0	Respublika byudjetidan	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

	ichki tuproq yoʻllarga qum-shagʻal aralashmasini (SHPS) yotqizish.						
--	--	--	--	--	--	--	--

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
7-qosımsha

**2026-yil Bo‘zatov tumanida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirish
CHORA-TADBIRLARI**

№	Tadbirlar nomi	O‘lchov birligi	Quvvati	Loyiha qiymati* (mln.so‘m)	Moliyalashtirish manbasi	Mas‘ul ijrochilar
Tuman bo‘yicha jami			240	6 540,0		
<i>shu jumladan:</i>						
I.	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari	o‘rin	120	4 800,0	Respublika byudjeti	Qoravqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta‘lim vazirligi
II.	Umumta‘lim maktablari	o‘quv o‘rin	120	1 740,0		
		sport zal (12x24)	(12x24)			
<i>shundan:</i>						
1	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari	o‘rin	120	4 800,0	x	x

1	Bo'zator tumani "Kuk suv" OFYda joylashgan 6-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotining 60 o'rinli binosini bo'zib o'rniga 120 o'rinli bino qurish	o'rin	120	4 800,0	Respublika byudjeti	Qoravqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Qoravqalpog'iston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi
2	Umumta'lim maktablari	o'quv o'rin	120	1 740,0	x	x
		sport zal (12x24)	(12x24)			
2	Bo'zator tumani Erkindaryo OFYda joylashgan 9-sonli umumta'lim maktabini rekonstruksiya qilish orkali 120 o'rinli qo'shimsha o'quv binosini qurish	o'quv o'rin	120	1 740,0	Respublika byudjeti	Qoravqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Qoravqalpog'iston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
8-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zatov tumanida xizmatlar sohasini rivojlantirish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
1.	Xizmat ko‘rsatish hajmini 2026 yilda 164,5 mlrd so‘m, o‘shish sur‘atini 111,3 foizga oshirish.	1. 25 ta yangi xizmat ko‘rsatish loyihalarni ishga tushirish. 2. Yo‘l bo‘yida savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarini ishga tushirish. 3. Belgilangan loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirish.	2 000 mln.so‘m Bank kreditlari va tashabbuskorlar mablag‘i	2026-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi
2.	Tuman markazidagi “Yerkin” kanali buyida tashkil etilgan sohil buyi xizmati hududida 5 ta xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish.	1. Auksionga chiqarilgan yerlarni tashshabbuskorlarga sotish. 2. Xarid qilinib olingan yerlarda qurilish ishlarini olib borish. 3. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish.	500 mln.so‘m bank kreditlari va tashabbuskorlar mablag‘i	2026-yil davomida	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi
3.	Xizmatlar sohasini	1. O‘tkazilgan xatlov natijasida va	Mablag‘ talab	2026-yil	Tuman hokimligi,

	rivojlantirish maqsadida 150 ta shundan 25 tasi ko'chma savdo faoliyati uchun yer maydonlarni auksion savdolariga chiqarish.	<p>hokim yordamchilari hamda tadbirkorlardan kelib tushgan takliflar asosida bo'sh yer maydonlarini aniqlash.</p> <p>2. Aniqlangan bo'sh yer maydonlarini mas'ul tashkilotlar bilan kelishish jarayonlarini jadallashtirish.</p> <p>3. Yer maydonlarini savdo-servis obyektlarini tashkil etish uchun auksion savdolarga chiqarish.</p> <p>4. Tadbirkorlar talabi asosida ularga kredit mablag'lari ajratilishida ko'maklashish.</p> <p>6. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish.</p>	etilmaydi	davomida	Qurilish va kommunal xo'jaligi bo'limi, Kadastr agentligi, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'limi
4.	2026-yilda 13 300 mln. so'mlik aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ko'rsatish orqali 115,8 foiz o'sish sur'atini ta'minlash.	<p>1. Tuman ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun belgilangan prognoz parametrlarining bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rish va doimiy monitoring qilib borish.</p> <p>2. IT-xizmatlar hajmini 13,3 mlrd so'mga, eksporti hajmini 0,15 mln dollarga yetkazish;</p>	Mablag' talab etilmaydi	2026-yil davomida	tuman hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligining hududiy bo'limi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi

		<p>3. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 10 nafar yoshlar o‘qitish;</p> <p>4. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 2 nafar yoshlarni xalqaro professional IT-sertifikatlarga o‘qitish;</p> <p>5. 2 nafar davlat xizmatchilarini xalqaro professional IT-certifikat olish uchun o‘qitish;</p> <p>6. Xar bir mahallada “2 nafar dasturchi” loyihasi doirasida yoshlarni ingliz va nemis tillariga o‘qitish orqali 5 nafar yoshlarni ro‘yxatini shakllantirish va o‘qitish rejalarini tasdiqlash;</p> <p>7. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish.</p>			
5.	2026-yilda 27 400 mln. so‘mlik transport xizmatlari ko‘rsatish orqali 10,3 foiz o‘sish sur‘atini ta‘minlash	<p>1. Tuman ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun belgilangan prognoz parametrlarining bajarilishini ta‘minlash choralarini ko‘rish va doimiy monitoring qilib borish.</p> <p>2. Noqonuniy harakatlanib yurgan avtomobillarni qonuniyga aylantirish.</p>	600 mln.so‘m Bank kreditlari, tashabbuskorlar mablag‘i	2026-yil yakuniga qadar	Tuman hokimligi, Transport bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, Investitsiya, sanoat va savdo bo‘limi, Soliq inspeksiyasi, Kambag‘allikni

		3. Transport xizmatini ko'rsatish tadbirkorlik subyektlarini tashkillashtirish choralarini ko'rsatish.			qisqartirish va bandlik bo'limi, Statistika bo'limi, Tijorat banklari,
6.	2026-yilda 26 100 mln. so'mlik savdo xizmati ko'rsatish orqali 108,4 foizga, 1,9 mln so'mlik yashash va ovqatlanish xizmatlari ko'rsatish orqali 107,5 foizga o'sish sur'atini ta'minlash.	1. Tuman ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun belgilangan prognoz parametrlarining bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rish va doimiy monitoring qilib borish. 2. xx ta madaniyat va istirohat bog'larini rivojlantirish maqsadida: a) 5 ta yangi tashkil etiladigan savdo-servis obyektlari; b) 1 ta yangi attraksion va ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish; v) madaniyat va istirohat bog'larida bo'sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarib borish; g) madaniyat va istirohat bog'larida 1 ming ta daraxt ko'chatlarini ekish 1,5 gektar maydonlarni obodonlashtirish.	300 mln.so'm Bank kreditlari, tashabbuskorlar mablag'i	2026-yil yakuniga qadar	Tuman hokimligi, Iqtisodiyot va moliya bo'limi, Investitsiya, sanoat va savdo bo'limi, Madaniyat bo'limi, Soliq inspeksiyasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Statistika bo'limi, Tijorat banklari
7.	Xorijiy va mahalliy turistlar sonini 71 ming	1. Xizmatlar sohasida mavjud faoliyat yuritadigan tadbirkorlik subyektlari va	Mablag' talab etilmaydi	2026-yil yakuniga	Tuman hokimligi, Iqtisodiyot va moliya

	<p>nafarga yetkazish hamda turizm eksportini 124 ming dollarga yetishini ta'minlash.</p>	<p>yangi tashkil etiladigan loyihalarning manzilli ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Zarur yer va bino-inshootlarni auksion savdolarga chiqarib borish.</p> <p>3. Tijorat banklari tomonidan kredit mablag'larini ajratilishiga ko'maklashish.</p> <p>4. Hokim yordamchilari tomonidan mavjud moliyaviy resurslar doirasida imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali aholini o'zini o'zi band qilganlar ro'yxatidan yuridik shaxsga o'tishini rag'batlantirib borish.</p> <p>5. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish hamda doimiy monitoring qilib borish.</p>		qadar	<p>bo'limi, Investitsiya, sanoat va savdo bo'limi, Madaniyat bo'limi, Soliq inspeksiyasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi, Statistika bo'limi, Kadastr agentligi tuman bo'limi, Tijorat banklari</p>
8.	<p>2026-yilda 2 000 mln. so'mlik ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatish orqali 118,2 foiz o'sish sur'atini ta'minlash.</p>	<p>1. Tuman ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun belgilangan prognoz parametrlarini bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rish va doimiy monitoring qilib borish.</p> <p>2. Maktab va kollejlarda hududidagi bo'sh yerlarni aniqlash, va ixtisosligi bo'yicha auksion savdolari orqali ijaraga</p>	Mablag' talab etilmaydi	<p>2026-yil 20-yanvar</p> <p>2026-yil yakuniga qadar</p>	<p>Tuman hokimligi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Kadastr agentligi tuman bo'limi,</p>

		berish. Umumta'lim maktablarida tugaraklarni sonini ko'paytirish, yangi to'garaklar tashkil etilishini monitoring qilib borish.			
9.	2026-yilda 500 mln. so'mlik sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish orqali 113,7 foiz o'sish sur'atini ta'minlash.	<p>1. Tuman ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun belgilangan prognoz parametrlarini bajarilishini ta'minash choralarini ko'rish va doimiy monitoring qilib borish.</p> <p>2. Tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinika va oilaviy poliklinikalarda qo'shimcha pullik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish xajmlarini oshirish.</p> <p>Maktab va kollejlarda hududidagi bo'sh yerlarni aniqlab, ixtisosligi bo'yicha auksion savdolari orqali ijaraga berish.</p>	Mablag' talab etilmaydi	2026-yil 20-yanvar 2026-yil yakuniga qadar	Tuman hokimligi, Sog'liqni saqlash bo'limi, Kadastr agentligi tuman bo'limi

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
9-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zatov tumanida xizmatlar sohasini sohasini rivojlantirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/ r	Indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2026- yil (reja)	shundan:				Mas’ullar	
				I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak		
1.	Bozor xizmatlar hajmining o‘shish sur‘ati	foiz	111,3	108,9	109,4	110,6	111,3	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosari
2.	“Drayver” loyihani amalga oshirish	ta	1	0	0	0	1	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosari
3.	“Master-reja” ishlab chiqilgan hududlarda loyihalarni amalga oshirish	ta	0	0	0	0	0	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	Tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosari
4.	Jamoat transporti parkini yangi avtobus va mikroavtobuslar bilan to‘ldirish	ta	0	0	0	0	0	Tuman hokimligi	Tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosari

5.	“Bir million sun’iy intellekt yetakchisi” loyihasi doirasida o‘qitiladigan yoshlar	nafar	10	2	2	2	4	“O‘ztelekom” AK tumani filiali	Tuman (shahar) hokimining ijtimoiy soha bo‘yicha o‘rinbosari
6.	Aholi punktlarida optik tolali aloqa liniyalarini kengaytirish	km	5	1	1	1	2	“O‘ztelekom” AK tumani filiali	Tuman (shahar) hokimining qurilish bo‘yicha o‘rinbosari
7.	Mahalliy va xorijiy turistlar oqimini oshirish	ming nafar	70	15	20	20	15	Turizm boshqarmasi	Tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosari
8.	Yangi mehmonxona, mehmon uyi va xostellar tashkil etish	o‘rinlar soni	0	0	0	0	0	Turizm boshqarmasi	Tuman (shahar) hokimining birinchi o‘rinbosari
9.	Ay-Ti xizmatlari eksporti hajmi	mln.doll	0,15	0,03	0,06	0,1	0,15	Investitsiyalar, sanoat va savdo sho‘basi, Savdo-sanoat palatasi bo‘limi	Tuman (shahar) hokimining investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari
10.	Turizm xizmatlari eksportini oshirish	mln.doll	124	31	31	31	31	Turizm boshqarmasi	Tuman (shahar) hokimining investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
10-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zatov tumanida investitsiyalar hajminioshırish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas‘ullar
1.	Tumanda hududiy investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan jami qiymati 51,4 mlrd. so‘mlik 11 ta loyihani o‘z muddatlarida ishga tushirilishini ta‘minlash va 121 ta yangi ish o‘rinlarini yaratish.	1. Shakllantirilgan ro‘yxat asosida tarmoq jadvallarini ishlab chiqib, tasdiqlash. 2. Tegishli kredit mablag‘larini belgilangan muddatlarida ajratilishini ta‘minlash. 3. Tasdiqlangan investitsiya loyihalarining ijrosi yuzasidan doimiy monitoringini olib borish.	Tarmoq jadvaliga muvofiq hisob-kitoblar asosida (tashabbuskorlar ning o‘z mablag‘lari va bank kreditlari)	Tarmoq jadvaliga muvofiq	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi, tegishli tijorat bank rahbarlari
2.	Hududiy investitsiya loyihalarining o‘z muddatlarida ishga	1. Loyiha tashabbuskorlari bilan doimiy aloqani o‘rnatilishini ta‘minlash. 2. Loyihalarni monitoring davrida	Talab etilmaydi	Har oy davomida	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

	tushirilishini ta'minlash maqsadida ularni doimiy monitoring qilib borish va loyihani amalga oshirish borasida aniqlangan muammolarni bartaraf qilish.	ularni aniqlangan muammolarni o'rganib, tuman yoki respublika darajasiga olib chiqish. 3. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'rish.			Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi, tegishli tijorat bank rahbarlari
3.	2026-yilda jami qiymati 2,8 mln dollarlik mahsulotlarni eksportini amalga oshirish va eksport geografiasini kengaytirish.	1. Eksport amalga oshirayotgan korxonalarini eksport dasturlari asosida qo'llab-quvvatlash. 2. Yangi bozorlarga chiqish va eksport yo'nalishlarini kengaytirishda amaliy yordam ko'rsatish. 3. Eksportchi korxonalar yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va bartaraf qilish.	Hisob-kitoblar asosida (tashabbuskorlar ning o'z mablag'lari va bank kreditlari)	Har oy davomida	Tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limi, tegishli tijorat bank rahbarlari
4.	2026-yilda to'g'ridan to'g'ri horijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish hajmini 1,0 mln. dollarga yetkazish.	1. Salohiyatli tadbirkorlarning investitsiya takliflarini shakllantirish. 2. Shakllantirilgan ro'yxat asosida O'zbekistonning horijiy davlatlardagi elchixonalarini orqali horijiy investorlarni topish va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni tashkillashtirish.	Hisob-kitoblar asosida (tashabbuskorlar ning o'z mablag'lari va bank kreditlari)	Yil davomida	Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, tuman hokimining investitsiya masalalari bo'yicha o'rinbosari, Savdo-sanoat palatasi

					tuman bo'limi, tegishli tijorat bank rahbarlari
--	--	--	--	--	---

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
12-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zатов tumanida eksport va investitsiyalar hajmini oshirishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

T/ r	Indikatorlar nomi	O‘lcho v birligi	2026- yil (reja)	shundan:				Mas’ullar	
				I chor ak	II chor ak	III chora k	IV chorak		
1.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish	mln.do ll	1,0	0	0,1	0,6	0,3	Investitsiyalar, sanoat va savdo sho‘basi	Tuman (shahar) hokimining investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari
2.	Hududiy eksport hajmi	mln.do ll	2,8	0,4	0,8	1	0,6	Investitsiyalar, sanoat va savdo sho‘basi	Tuman (shahar) hokimining investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari
3.	Sanoat mahsulotlari eksporti hajmi	mln.do ll	2,4	0,4	0,7	0,8	0,5	Investitsiyalar, sanoat va savdo sho‘basi	Tuman (shahar) hokimining investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari

4.	Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hamji	mln.do ll	0,4	0	0,1	0,2	0,1	Investitsiyalar, sanoat va savdo sho'basi	Tuman (shahar) hokimining investitsiyalar bo'yicha o'rinbosari
5.	Hududiy investitsiya dasturiga asosan loyihalarni amalga oshirish	ta	11	0	0	5	6	Investitsiyalar, sanoat va savdo sho'basi	Tuman (shahar) hokimining investitsiyalar bo'yicha o'rinbosari
6.	Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat korxonalarida xalqaro standartlarni joriy qilish	korxon a soni	1	0	0	0	1	Qishloq xo'jaligi bo'limi	Tuman (shahar) hokimining qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha o'rinbosari

Xalíq deputatları Bozataw rayonı Keńesiniń
2025-jıl 30-dekabrdaǵı
VII-17-151-13-216-K/25 -sanlı sheshimine
13-qosımsha

**2026-yilda Bo‘zатов tumanida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish
KICHIK DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Talab etiladigan mablag‘, manbasi (mln. so‘m)	Muddati	Mas’ullar
